



URBANISTIK FOLKLORNING SHAKLLANISHIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR

Shomirzayeva Laziza

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti

Folklorshunoslik va dialektologiya mutaxassisligi

1-kurs magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20535555>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 11-may 2026 yil

Ma'qullandi: 15-may 2026 yil

Nashr qilindi: 31-may 2026 yil

KEY WORDS

urbanistik folklor, shahar folklori, urbanizatsiya, migratsiya, globalizatsiya, internet folklori, urban legends, migratsiya, zamonaviy folklor va h.k.

ABSTRACT

Mazkur maqolada urbanistik folklorning shakllanish jarayonlari va unga ta'sir etuvchi zamonaviy omillar tahlil qilinadi. Urbanizatsiya, migratsiya, globalizatsiya hamda internet va raqamli texnologiyalarning urbanistik folklor rivojiga ko'rsatgan ta'siri ilmiy jihatdan yoritilgan. Shuningdek, urbanistik folklorning zamonaviy jamiyatdagi o'rnini va ahamiyati misollar asosida ochib berilgan.

Kirish. Folklor xalqning tarixiy xotirasi, madaniyati va dunyoqarashini o'zida aks ettiruvchi muhim ijtimoiy- madaniy hodisalardan biridir. Jamiyat taraqqiyoti va ijtimoiy hayotdagi o'zgarishlar folklorning mazmuni va shakliga ham ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa, urbanizatsiya jarayonlarining kuchayishi natijasida folklorning yangi shakli-urbanistik folklor yuzaga keldi.

Urbanistik folklor shahar muhitida shakllanadigan va zamonaviy kommunikatsiya vositalari orqali tarqaladigan folklor namunalarini o'z ichiga oladi. Unda shahar hayoti, texnologiyalar, ijtimoiy munosabatlar va zamonaviy inson dunyoqarashi aks etadi. Shahar afsonalari, internet memlar, mish-mishlar va talabalar folklori urbanistik folklorning asosiy ko'rinishlari hisoblanadi.

Bugungi kunda urbanistik folklorning rivojlanishiga urbanizatsiya, migratsiya, globalizatsiya hamda internet texnologiyalari sezilarli darajada ta'sir ko'rsatmoqda. Shu sababli urbanistik folklorning shakllanish omillarini o'rganish dolzarb ilmiy masalalardan biri hisoblanadi.

Tahlil va natijalar. Ilmiy jihatdan urbanistik folklor XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab alohida tadqiqot obyekti sifatida o'rganila boshlandi. Jan Harold Brunvard urban legends tushunchasini ilmiy muomalaga kiritib, urbanistik folklorning zamonaviy jamiyatdagi o'rnini asoslab bergan. U urbanistik folklorni "zamonaviy afsona va og'zaki hikoyalarning shahar muhitida tarqaladigan shakli"¹sifatida talqin qiladi.

Fuzuli Bayat esa urbanistik folklorni globallashuv va urbanizatsiya mahsuli sifatida baholab, uning shakllanishida ommaviy madaniyat hamda kommunikatsiya vositalarining muhim rol o'ynashini ta'kidlaydi.

¹ Brunvard J.H. The Vanishing Hitchhiker : American Urban Legends and Their Meanings.-New York: W.W. Norton,1981.

An'anaviy folklordan farqli ravishda urbanistik folklor asosan zamonaviy shahar hayoti bilan bog'liq voqea-hodisalarni qamrab oladi. Unda shahar muammolari, ijtimoiy qo'rquvlar, texnologiyalar, yoshlar madaniyati, ommaviy axborot vositalari va internet bilan bog'liq mazmun ustunlik qiladi. Shu sababli ham bugungi kunda ushbu folklor turining shakllanishida bir qancha zamonaviy ta'sirlarni kuzatishimiz mumkin.

Urbanistik folklor zamonaviy jamiyat taraqqiyoti mahsuli sifatida turli ijtimoiy, madaniy va texnologik omillar ta'sirida shakllangan. Ayniqsa, urbanizatsiya jarayonlarining kuchayishi, migratsiya, globalizatsiya hamda internet texnologiyalarining rivojlanishi urbanistik folklorning paydo bo'lishi va keng tarqalishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Urbanizatsiya – bu aholining qishloq hududlaridan ko'chib kelishi, shaharlarning kengayishi va shahar turmush tarzining rivojlanishi bilan bog'liq ijtimoiy jarayondir. Mazkur jarayon jamiyatning madaniy hayotiga ham kuchli ta'sir ko'rsatib, folklorning yangi shakllarini yuzaga keltirdi. Urbanizatsiya jarayonida turli hududlardan kelgan insonlar bir makonda yashay boshlaydi. Bu esa turli madaniy qatlamlarning o'zaro aralashuviga sabab bo'ladi. Shahar muhiti insonlarning ruhiy holatiga ham ta'sir ko'rsatadi. Tezkor hayot tarzi, raqobat, stress va begonalashuv kabi holatlar turli folklor shakllarida aks etadi. Masalan, zamonaviy shahar afsonalarida noma'lum xavf, texnologik qo'rquv yoki ijtimoiy muammolar bilan bog'liq syujetlar uchraydi. Bu esa urbanistik folklorning jamiyatdagi psixologik holatni aks ettirishini ko'rsatadi etadi. Urbanizatsiya natijasida kommunikatsiya vositalari ham rivojlandi. Avvallari folklor asosan og'zaki tarzda tarqalgan bo'lsa, bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlar, internet va ommaviy axborot vositalari urbanistik folklorning asosiy tarqalish maydoniga aylandi. Bu esa folklorning tez o'zgarishi va keng ommaga tarqalishiga sabab bo'lmoqda.

Urbanistik folklorning shakllanishiga ta'sir etuvchi muhim omillardan yana biri migratsiya jarayonidir. Migratsiya natijasida turli hudud, millat va madaniyat vakillari bir ijtimoiy makonda yashay boshlaydi. Bu holat madaniy integratsiya jarayonlarini kuchaytirib, folklor namunalari o'zaro almashinuvi va transformatsiyasiga olib keladi. Migratsiya jarayonlari urbanistik folklorning nafaqat mazmuniga, balki uning tarqalish shakliga ham ta'sir ko'rsatadi. Turli ijtimoiy guruhlar o'rtasidagi kommunikativ aloqalar natijasida mish-mishlar, latifalar, shahar afsonalari va norasmiy hikoyalar tez tarqaladi. Bu jarayonda folklor jamiyatdagi ijtimoiy moslashuv vositasi sifatida ham namoyon bo'ladi.

Shahar muhitiga moslashishga harakat qilayotgan insonlar o'z madaniy tajribalarini folklor orqali ifoda etadilar. Natijada migratsiya bilan bog'liq qo'rquv, begonalashuv, identifikatsiya va ijtimoiy moslashuv kabi holatlar urbanistik folklorda aks etadi. Bu esa urbanistik folklorning ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini kuchaytiradi.

Fuzuli Bayat urbanistik folklorning rivojlanishini madaniy transformatsiya jarayonlari bilan bog'lab, migratsiya natijasida folklor shakllarining yangilanib borishini ta'kidlaydi.² Shuningdek, Jan Harold Brunvand urban legendsning shakllanishida ijtimoiy muhit va kommunikativ almashinuv muhim o'rin tutishini qayd etadi.³

Zamonaviy jamiyatda urbanistik folklorning shakllanishi va rivojlanishiga ta'sir etuvchi eng muhim omillardan biri globalizatsiya va internet texnologiyalarining rivojlanishi hisoblanadi. Axborot almashinuvining tezlashuvi, kommunikatsiya vositalarining takomillashuvi hamda raqamli makonning kengayishi folklorning mazmuni, shakli va tarqalish usullarida muhimo'zgarishlarni yuzagakeltirdi. Globalizatsiya jarayoni natijasida turli xalqlar madaniyati o'rtasidagi chegaralar nibatan qisqaradi. Bu esa folklor namunalari bir hududdan boshqasiga tez tarqalishiga imkon yaratadi. An'anaviy folklor asosan ma'lum hudud yoki etnik

² Bayat F. Modern City Folklore in a Changing Folklore Paradigm // Dede Korkut Journal. — 2024.

³ Brunvand J.H. The Vanishing Hitchhiker : American Urban Legends and Their Meanings.-New York: W.W.Norton,1981

muhit bilan bog'liq bo'lgan bo'lsa, urbanistik folklor global xarakter kasb eta boshladi. Natijada ayrim shahar afsonalari, internet hazillari va memlar xalqaro miqyosda ommalashmoqda. Globalizatsiya urban folklorida umumiy mavzularning shakllanishiga ham sabab bo'ladi. Masalan, texnologik qo'rquv, sun'iy intellekt, virtual hayot, yolg'on axborot va ommaviy madaniyat bilan bog'liq syujetlar turli davlatlar urbanistik folklorida uchraydi. Bu holat zamonaviy jamiyatdagi umumiy ijtimoiy muammolar folklorida aks etayotganini ko'rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, urbanistik folklor zamonaviy jamiyat taraqqiyoti natijasida shakllangan murakkab ijtimoiy-madaniy hodisa hisoblanadi. U an'anaviy folklorning davomchisi sifatida yuzaga kelgan bo'lsa-da, mazmuni, shakli va tarqalish usullari jihatidan o'ziga xos xususiyatlarga ega.

Urbanistik folklorning shakllanishida urbanizatsiya, migratsiya, globalizatsiya hamda internet texnologiyalarining rivojlanishi muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Shahar muhitining kengayishi, turli madaniyatlarning o'zaro integratsiyasi va kommunikatsiya vositalarining rivojlanishi natijasida folklorning yangi ko'rinishlari paydo bo'lmoqda. Ayniqsa, internet va ijtimoiy tarmoqlar urbanistik folklorning tez tarqalishi va ommalashishiga katta ta'sir ko'rsatmoqda.

Shuningdek, urbanistik folklor zamonaviy jamiyatning ijtimoiy kayfiyati, madaniy qarashlari va psixologik holatini aks ettiruvchi muhim kommunikativ vosita sifatida namoyon bo'ladi. Unda shahar hayoti, texnologik taraqqiyot, yoshlar madaniyati va ommaviy madaniyat bilan bog'liq jarayonlar o'z ifodasini topadi.

Tadqiqot davomida urbanistik folklorning zamonaviy kommunikativ makonda faol rivojlanayotgani va global xarakter kasb etayotgani aniqlandi. Bu esa urbanistik folklorni nafaqat folklorshunoslik, balki sotsiologiya, antropologiya va madaniyatshunoslik nuqtayi nazaridan ham o'rganish zarurligini ko'rsatadi.

Mening fikrimcha, urbanistik folklor kelajakda ham zamonaviy texnologiyalar va ijtimoiy jarayonlar ta'sirida yangi shakllarda rivojlanishda davom etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Aliyeva U.I. General Issues of Urban Folklore // International Journal of Folklore Studies. — 2021.
 2. Fuzuli Bayat. Modern City Folklore in a Changing Folklore Paradigm // Dede Korkut Journal. — 2024.
 3. Jan Harold Brunvand. The Vanishing Hitchhiker: American Urban Legends and Their Meanings. — New York: W.W. Norton, 1981.
 4. Kovačević I. Urban Legends – American and/or Global Folklore // Folklore Research Journal. — 2019.
- Mirzayev T. O'zbek xalq og'zaki ijodi. — Toshkent: Mumtoz so'z, 2010